





Nogironligi bor insonlarning madaniy hayotda ishtirok etish va dam olishdagi huquq va imtiyozlari

Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen nogironligi bor insonlarning **madaniy hayotda ishtirok etish va dam olishdagi imtiyozlari** haqida bilib olasan.
	**“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 30-moddasiga ko‘ra:** ● sen ham boshqalar bilan bir xil madaniy hayotda qatnashishing mumkin.
	**Madaniy hayot –** bu sen har xil bayramlar, majlislar, tomoshalar va dam olish joylarida dam olishing.
	**Masalan, davlat senga qulaylik yaratish uchun:** ● nogironligi bor insonlarga muzeylarga kirishda bepul chiptalar berishi

	• asarlarni ko‘zi ojiz insonlar alifbosida chiqarishi mumkin.
	Ko‘zi ojiz yoki eshitishda nogironligi bor insonlar uchun televizorda ko‘rsatiladigan dasturlar imo ishora tili orqali ham ko‘rsatilishi kerak.
	Sen boshqalardek sport musobaqasida qatnashishing uchun kerakli sharoitlar yaratiladi.
	Olimpiya o‘yinlarida nogironligi bor insonlar uchun alohida paralimpiya sport o‘yinlari sektori ham tashkil etilgan.
	“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi qonunining 27-moddasiga ko‘ra: • nogironligi bor insonlar xususiy sport binolaridan bepul foydalanishlari mumkin.
	Xususiy sport bino egalari yoki ishchilari sendan pul talab qilishi mumkin emas.

	Vazirlar Mahkamasining 123-sonli qarorining 3-bandiga ko‘ra: • o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz va yolg‘iz yashovchi keksalar va nogironligi bor insonlar **davlat sport tadbirlariga, teatrlariga va muzeylariga kirish bepul** etib belgilangan.
	O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz yashovchi nogironligi bor insonlar sport to‘garaklarida bepul qatnashishi uchun yo‘llanmani **“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi beradi.**
	O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz yashovchi keksalar, nogironligi bor insonlar va **ularni kuzatuvchi insonlarga** davlat sport tadbirlariga, teatr va muzeylarga kirish **bepul** etib belgilangan.
	Bunda faqatgina bitta o‘zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bor insonga faqat **bitta hamroh** sherik bo‘lib bepul kirishi mumkin.
	**Nogironligi bor insonlar uchun muzey, teatr va boshqa ko‘ngilochar joylarda yaratilishi kerak bo‘lgan sharoitlar:**

	● taktil yo‘laklar, ● muzeylarda ona va bola xonalarini tashkil etish, ● bekatlar va jamoat transportida ovozli xabar berish tizimlarini joriy etish ● ovozli xabar berish svetoforlari ● metro bekatlarida nogironligi bor insonlar uchun ko‘tarilish vositalarini o‘rnatish ● jarohat yetkazmaydigan ushlagich va panduslar o‘rnatish.